

70-YILLAR ROMANCHILIGINI O'RGATISHNING USTIVOR YO'NALISHLARI

*Nasirov Azimidin Normamatovich,
Toshkent Kimyo xalqaro universitet Samarqand filiali professori,
filologiya fanlari doktori*

Annotatsiya. Davr romanichiligining asosiy xususiyatlarini olib berish bilan bir qatorda, davrning murakkab va ziddiyatli jarayonlarini ham tahlil qilish, talabada davr muhiti haqida tushuncha shakllantirish talab etiladi. 70-yillarda yaratilgan romanlar haqida so'z yuritilganda, roman yartilgan sotsial jamiyatning mafkuraviy qarashlarini birlamchi darajada ekanligi, bu esa ijodkorda ham juda katta mas'uliyatni talab etganligini tarix haqiqatidan kelib chiqib bayon etish, talabada to'g'ri tushunchalar uchun asos bo'lashi qayd etilgan.

Kalit so'zlar: mafkura, adabiyot, qarashlar, tushuncha, talqin, mahorat.

70'LER YENİLİĞİ ÖĞRETİM ÖNCELİKLERİ

*Nasirov Azimidin Normamatovich,
Taşkent Uluslararası Kimya Üniversitesi Semerkant Şubesi Profesörü,
Filoloji Doktoru*

Özet. Dönemin romanının temel özelliklerinin ortaya konulmasının yanı sıra dönemin karmaşık ve çelişkili süreçlerinin de çözümlenmesi, öğrencide dönemin ortamına ilişkin bir anlayış oluşturulması gerekmektedir. 1970'li yıllarda yaratılan romanlar ele alındığında, romanın öncelikle yazıldığı toplumsal toplumun ideolojik görüşlerini yansittiği, yaratıcısından büyük sorumluluk istediği, bunları tarihsel gerçeklere dayalı olarak sunarak öğrencilerde doğru anlama zemini sağladığı belirtilmektedir.

Anahtar kelimeler: ideoloji, edebiyat, görüş, kavram, yorum, beceri.

ПРИОРИТЕТНЫЕ НАПРАВЛЕНИЯ ПРЕПОДАВАНИЯ РОМАНИСТИКИ 70-Х ГОДОВ

*Насиров Азимидин Нормаматович,
профессор Самаркандского филиала Ташкентского международного
университета Кимё, доктор филологических наук*

Аннотация. Наряду с раскрытием основных особенностей романстики эпохи, необходимо также анализировать сложные и противоречивые процессы того времени, формируя у студентов представление об атмосфере той эпохи. При обсуждении романов, созданных в 70-х годах, отмечается, что идеологические взгляды социального общества, в котором создавался роман, играли первостепенную роль. Это, в свою очередь, возлагало на писателя большую ответственность, и изложение этого на основе исторической правды является основой для формирования у студентов правильных представлений.

Ключевые слова: идеология, литература, взгляды, понимание, интерпретация.

PRIORITY DIRECTIONS IN TEACHING THE NOVELISTIC LITERATURE OF THE 1970s

*Nasirov Azimidin Normamatovich,
professor at the Samarkand branch of the Tashkent international university
of named Kimyo, doctor of philological sciences*

Abstract. Along with revealing the main characteristics of the novelistic literature of the era, it is also required to analyze the complex and contradictory processes of that time and to form students' understanding of the historical environment. When discussing the novels written in the 1970s, it is emphasized that the ideological views of the socio-political society in which the novel was created were of primary importance. This, in turn, demanded great responsibility from the writer, and explaining this based on historical facts is considered a foundation for developing students' accurate understanding.

Key words: ideology, literature, views, understanding, interpretation, mastery.

Zamonaviy jamiyat o‘zining tez va chuqur o‘zgaruvchan tavsifiga ega bo‘lib, bunday o‘zgarishlar jamoatchilik tuzilmalari, jumladan, mustaqil davlatlar, shaxs va jamiyat o‘rtasidagi munosabatlar, demografik siyosat, urbanizasiya jarayonlarida ko‘zga yaqqol tashlanmoqda. Ta’lim ham global umumhamjamiyat tuzilmasining alohida tarkibiy qismi sifatida jamiyatda bo‘layotgan barcha o‘zgarishlarni hisobga olishi, ana shu asosda o‘z tuzilishi va faoliyat mazmunini o‘zgartirishi zarur.

Roman janri hayotni epik tasvirlash bilan bir qatorda o‘zida inson ichki dunyosini, uning sirlarini chuqur va bat afsil tasvirlashga asoslangani uchun ham janrlar orasida yetakchilik qilishini qayd qilish mumkin. Psixologizm va psixologik tahlil adabiyotning qonuniy hodisasi sifatida o‘zining butun borligini romanchilikda namoyon qildi. Shu o‘rinda A.Rahimovning “Adabiyot tarixi – bu yuksak ideallar va teran badiiy g‘oyalar, murakkab insoniy kechinmalar va barkamol xarakterlar hamda orginal poetik obrazlar-chinakkam san’at yo‘lidagi yuksalishlar va inqirozlar tarixi; adabiyot tarixi, bu hayotni realistik aks ettirish yo‘lidagi rang-barang badiiy uslubiy izlanishlar, adabiy harakatning va estetik tafakkur rivojining mohiyatini belgilovchi yetakchi tamoyillari va asosiy qonuniyatlar tarixi deganidir”, – deb yozgan fikrlari o‘zbek romanchiligining mohiyatini yanada teranroq anglashga xizmat qiladi.

Badiiy obrazlar qanchalik mukammal bo‘lsa, hayot haqiqatini chuqur yoritsa, qahramonlar ichki dunyosini, istiroblarini tadqiqi qanchalik asosli yoritsa, obrazlar olamining ta’sir doirasi ham shunchalik kengayadi. «Agar hayotiy material, –deb yozadi P.Shermuhammedov, san’atkorlarning qalb fabrikasida qayta ishlanmasa, har qanday fakt-faktligicha, prototip protopligricha qolaveradi».

To‘g‘ri, badiiy haqiqat hayot haqiqatining chuqur tahlil qilinib, haqqoni, to‘loqonli obrazlar, xarakterlar, tiplarga singdirilgan shaklidir. Psixologizm muammosi haqida adabiyotshunos A.Iyezuitov yozadi: “... Psixologizm ongli va asosiy estetik prinsip sifatida mavjuddir”. Psixologizm badiiy tasvirda o‘ziga xos xususiyatlarni namoyon qiladi.

70-80-yillarga kelib o‘zbek adabiyotida o‘nlab romanlar maydonga keldi. Bu romanlar turli mavzularda bo‘lib hayotning turfa xil qirralarini badiiy talqin eyish bilan bir qatorda, turfa xil xarakterlarni, ularning botiniy olamini, murakkab hayot voqeligini badiiy talqin etgan. Pirimkul Qodirovning “Yulduzli tunlar”, “Olmas kamar”, “Qora ko‘zlar”, Odil Yoqubovning “Ko‘hna dunyo”, “Ulug‘bek xazinazi”, “Diyonat”, “Oq qushlar oppoq qushlar”, Mirmuhsinning “Me’mor” kabi o‘nlab romanlar maydonga keldi. Bu davr romanchiligidagi tarixiy mavzu bilan bir qatorda zamonaviy romanlar yuksak darajaga ko‘tarildi. Pirimkul Qodirovning “Yulduzli tunlar”, Odil Yoqubovning “Ulug‘bek xazinasi” kabi badiiy mukammal tarixiy romanlar yaratildi.

Tariximizning zarvaraqlaridan o‘rin olgan Mirzo Ulug‘bek, Zahiriddin Muhammad Bobur obrazlari epik xarakterdagi romanlarda o‘z ifodasini topdi [1, 16-bet]. Bu tarixiy romanlarda tarixiy fakt yozuvchi fantaziysi bilan chatishib, o‘sha davr ruhi chuqur yoritilgan. Masalan: “Yulduzli tunlar” romanidagi Bobur Mirzo xarakterining badiiy talqiniga e‘tibor beraylik. Bobur yosh bo‘lishiga qaramasdan zo‘rovon beklarning istagiga qarshi chiqadi. Yoki Bobur endigina taxt tepasiga chiqqan vaqtida sodir bo‘lgan bir voqyeaga diqqat qilaylik. Beklar Bobur oldiga Darvish govni ig‘vo tarqatganlikda ayblab olib keladilar. Darvish gov oddiy fuqoroni qo‘llab-quvvatlagani uchun ham beklar undan qasd olish maqsadida uni ayblaydilar.

“Amirzodam, men ig‘vogar emasmen! Men ig‘vogorlarning qurbanimen! Menga rahm qiling! Beshta yosh bolam bor! Noumid qilmang, amirzodam” Uning so‘zlaridan keyin Boburda

unga nisbatan rahm-shafqat tuyg‘usi uyg‘onadi. Lekin urush xavfi beklarning talabiga ko‘nishga majbur etadi. Tarixiy sharoit insoniylikka yo‘l bermaydi: “Yasoq!-deb qichqarayotgan har darg‘azab bek Bobur dan quyoshni to‘sib olgan bir qora bulutga O‘xshardi. Boburni chirmab aylantirayotgan dahshatlari quyuni mana shu qora bulutlarning shamoli emasmi? Nahotki, bu bulutlar doim toju taxt bilan birga yursa-yu, Darvish govga o‘xshaganlarning qoniga shunchalik tashna bo‘lsa??!

Boya Boburga xuddi bulutlar orasida suzib chiqqan to‘lin oyday go‘zal ko‘ringan toju taxt endi oy tutilgan shunday vahimali tusga kirdi. Bobur noma’lum xavf-xatardan seskanib, Xo‘ja Abdullaga yordam so‘raganday qaradi:

– Ustod!.. –Amirzodam, – shivirladi Xo‘ja Abdulla, podshohlik udumiga binoan xatarli urush paytida tojdorlar sha’niga nomunosib gap aytgan odam jinoyatchi hisoblanur!.. Endi siz... bitta Darvish govni deb barcha beklardan voz kecholmagaysiz. Vaziyat tahlikali... Siyosat uchun govni yasoqqa yetkazmoqdan boshqa iloj yo‘q!”.

Asardagi bu tasvirlardan ko‘rinadiki, Bobur toju taxt quyunida charxpalak bo‘lib aylanishiga qaramasdan insoniy fazilatlarini saqlab qolishga harakat qiladi.

Shu o‘rinda quyidagi muammoni o‘rtaga tashlaymiz: “Bobur Mirzo xalq uchun fidoiy bo‘lgan insonni Dorvesh Govni o‘limga to‘g‘ri mahkum qildimi yoki adolatsizlik qildimi?” Talabalarning fikrlari tinglanadi va munosabat bildiriladi.

Bu talqinlarda Bobur Mirzo xarakterining o‘ziga xos shakllanishini ko‘ramiz. Adabiyotshunos Izzat Sulton: “Xarakter ma’lum davrga, muhitga, kasbga, yoshga jinsga mansub kishiga xos xususiyatlarni yorqinlik bilan ifoda etadi. Xarakterda yozuvchining kishilarga va hayotga munosabati, hayotiy hodisalarga bergen estetik bahosi yaqqol ko‘rinadi...Xarakterlar muayyan sosial-psixologik sharoitda harakat etish natijasida namoyon bo‘ladilar va shakllanadilar”. Darhaqiqat, Bobur harakat etgan tarixiy sharoitda insoniylik xislatlarini namoyon etishining o‘zi undan juda katta iste’dod talab qilardi. Ba’zan, insoniylikdan sharoit ustun kelganda, shohlik taqdirini beklar hal qilayotgan paytlarda Bobur o‘z aqidasidan chekinishga majbur bo‘ladi, shuning evaziga shohlikni saqlab qoladi. Fantaziya mahsuli bo‘lgan bu lavhalarda Bobur davrining asosiy mohiyati ochish bilan birga shoh va shoir Boburning qalb iztiroollarini tadqiq etadi. Boburning saltanatdan bezgan, mag‘lub vaqtlardagi hayotini yozuvchi uning ichki kechinmalari orqali asoslaydi. Bu esa analistik prinsipning yorqin namunasidir.

Adabiy madaniy merosimizni o‘rganish, anglash va tadqiq etish adabiyotshunosligimizning asosiy vazifalaridan biridir. Badiiy adabiyotda insoning badiiy jihatdan mukammal obrazini yaratish eng murakkab masalalardan biridir. Adabiyot va san‘at jamiyat hayotida ma’lum o‘rinni egallay boshlagan davrlardan boshlab insonni talqin qilishga, uning ijtimoiy hayotdagi o‘rinni, ruhiy dunyosidagi o‘zgarish va qarama-qarshiliklarni badiiy tadqiq qilishga intilib kelgan. “Hozirgi roman, jumladan, o‘zbek romani tajribasi bunday xulosalarning asossizligini ko‘rsatmoqda. Xuddi shu ma’noda hozirgi roman insonning kuch va imkoniyatlarini ko‘rsatish, uning ichki ziddiyatlarini ochishning cheksiz vositalarini kashf etmoqda. Zotan olamning epik holati mavjud ekan, yirik epik romanlar o‘lmaydi, aksincha, inson kechinmalari va o‘ylari tasviridan boshlab, bir muddatli holatigacha tahlil qilish hisobiga kengayadi, uning ichki dunyosiga chuqurroq kirib borish hisobiga takomillashadi va boyib boradi” [2, 26-bet].

Avvalo, shuni alohida ta’kidlash joizki, har bir davrda inkishof etilgan badiiy talqin olam va odamni yangicha idrok etib, o‘z dunyosini bunyod etayotgan yangi ijodiy-mantiqiy aqidani ilgari suradi. Zotan, badiiy mohiyat o‘ziga xosligi, birinchi navbatda, mushohadaning ong va tuyg‘uda qayta ijodiy shakllantirilgan tizimiga asoslanadi. Chunki xarakter shaxsiga singdirilgan qahramon konsepsiyasida davr va jamiyatning butun borlig‘i – taraqqiyoti, zamon evrilishlari silsilasida tug‘ilayotgan ziddiyatlar, real muammolar, real manzara ifodasini topadi.

“Qahramonlar taqdiri ularni o‘rab turgan muhit xarakteriga bog‘liq. Bu muhitda asrlar davomida shakllangan ijtimoiy va ma’naviy qonunlar insonni ezish, inson shaxsining o‘z erki, huquqi yo‘lida har qanday intilishlarni bo‘g‘ib tashlash uchun xizmat qiladi”. Shuningdek sof adabiyotning gumanistik mohiyati va yo‘nalishi, avvalo, insonni badiiy aks ettiruvchi falsafiy-

estetik prinsiplarda, shaxsnинг о‘тмishi, buguni va kelajak hayotiga nisbatan nuqtai nazarida, maqsad va intilishlarining ruhiy-intellektual mundarijasida, jamiyataro tutgan mavqyeida, odamlar bilan muloqot-munosabatlarida o‘z ifodasini topadi. Aynan shu omillar mushtarakligi haqiqiy ijodkor shaxsiyatida jamiyat va olam munosabatlarining badiiy talqiniga aylanadi.

“Insoniyat tarixida XX asr ijtimoiy va siyosiy ixtiloflar, fan-texnika taraqqiyoti asri bo‘lishi bilan birga, estetik-intellektual tafakkur xilma-xilligini namoyon qilgan asr hamdir. Adabiyot olamida kechgan evrilishlar badiiy-estetik taraqqiyot mezonlari va tamoyillarini belgiladi” [3, 58-bet]. Shu ma’noda, Odil Yoqubov olamning go‘zalligi, insoniyatning shu go‘zallikka munosabatini, gumanizm mohiyati va qadr-qimmatini butun ijodi badiiy to‘qimalariga yoyilib ketgan milliy ma’naviyat ifodasiga singdiradi. Odamzodning ruhiy barkamolligi, ezgu maqsadi haqida falsafiy teran tasvir yo‘nalishi adib dunyoqarashi va nazariy tasavvuri kengligidan dalolat beradi. Shuning uchun ham ijodkorning har bir asarida xoh u kichik janr bo‘lsin, xoh yirik hajmli badiiy polotno bo‘lsin, diyonat,adolat, haqiqat, oqibat va mehr-muhabbat tushunchalari talqini markaziy chiziqni tashkil etadi. Ijodkorning har bir asari o‘quvchi qalbini zabit etishga qaratilgan.

“Otaqo‘zi yuragining tagidan da‘fatan vulqonday qaynab kelgan g‘azabni zo‘r-bazo‘r to‘xtatib qoldi. Zum o‘tmay bu g‘azab, tog‘asiqa qarshi dilida jo‘sh urgan bu isyon qandaydir alamli bir tuyg‘u bilan almashdi-yu, uzoq mum tishlab qoldi. U cholning nega bunday qilayotganini yaxshi bilardi-hammasiga uning eski raqibi professor Mirobidov sababchi! Yo tavba! Tug‘ishgan tog‘a bo‘lsa-yu, eski raqibiga pand berish uchun o‘z jigarining farzandini ham ayamas!.. Insofuadolat qani? Tog‘asining shu odati sabab, o‘g‘li Haydar ham, qizi Tohira ham bu xonadondan bezib ketishdi. Bir yilda bir marta yo kelishadi, yo kelishmaydi! Otaqo‘zi bo‘lsa... yaxshi bo‘lsin, yomon bo‘lsin, tug‘ishgan tog‘am-ku, befarzand, ko‘ngli nozik odam-ku, deb cholning qiliqlari jonidan o‘tib ketgan chog‘larida ham shaharga kelsa kirmay ketmaydi! Chol-kampir kishloqqa borishsa boshiga ko‘taradi, uyining to‘rini shularga bo‘shatib beradi. Bu odam bo‘lsa... Otaqo‘zi bir nima desa nuqul prinsipdan keladi! Ammo... tashakkur! Otaqo‘zi bunaqa haqgo‘ylikni tushunmaydi va tushunishni ham istamaydi” [4, 20-21-bet].

Matndan quyidagi muammoli savolni yuzaga chiqarish mumkin: “Otaqo‘zi to‘g‘ri yo‘lni tanladimi yoki, tog‘asi Normurod Shomurodovning anglamagan holda dilini og‘ritdimi?” Bu o‘rinda ham talabalar fikri tinglanadi va munosabat bildiriladi.

“Diyonat” romanı epik borlig‘ida Otaqo‘zi siyoshi qabarib turadi. Ijtimoiy-psixologik ziddiyatlarni birlashtirib turadigan qahramon ham xotira, ham muhokama, ham faoliyat davomiyligida turg‘unlik davri muhitini boshqaradi. To‘ldiruvchi mohiyat personajlar manfaatlarini jipslashtiradi. O‘zligi va xarakterida namoyon rais hayoti solnomasi turfa qarama-qarshilikdan iborat. Tog‘a tabiatida mavjud «haqgo‘ylikni tushunmaydigan va tushunishni istamaydigan» jiyan murakkab fe’l-atvor egasi. “Nuqul prinsipdan keladigan” Normurod Shomurodov dunyoqarashi uning xunobini chiqaradi [5, 120-126-betlar].

Aslida domla shamoyilida hukmon diyonat tuyg‘usi jamiyat epkinlarida jiddiy sinovlardan o‘tgan. Muallif tayyor holatda berilgan xarakterlararo to‘qnashuvni ijtimoiy sahnaga chiqaradi. Mashhur raisadolat tamoyillarini “eski raqiblar orasidagi ziddiyat” sifatida idroklaydi. Odatiy injiqlik, deya baholangan e’tiqod butunligi va maslak musaffoligi olim olami bezagi. Halollik va ezgulikka yo‘g‘irilgan umr hamisha mashaqqatlarga duch keladi. Nurafshon tuyg‘ularga eltadigan a‘mol insonni saodatga erishuviga insonning zamin hozirlaydi. Aslida Otaqo‘zi yomon odam emas. Unda oqibat, e’tiqod va bag‘rikenglik xislatlari mavjud [6, 56-bet]. Biroq qahramon hayotda qoqilishni istamaydi. Murosayu madora bilan zamonga moslashuvchanlik uning asosiy illati.

Ayniqsa, so‘nggi paytlarda rais bosar-tusarini bilmay qolgan. Bundan Normurod Shomurodov ham, tuman rahbari Shukurov ham jiddiy xavotirlanishadi. Qahramonga salbiy ta’sir qilayotgan ijtimoiy nuqsonlar (buyruqbozlik, izzattalablik, shaxsga sig‘inish oqibatlari) xarakter ma’naviyatini izdan chiqaradi. Aynan tuman rahbari va tog‘a qo‘rqayotgan holat asar oxirida yuzaga keladi [7, 75-bet]. Bir qarashda, Shukurov va Vohid Mirobidov o‘rtasida paydo bo‘lgan jarlik dunyoni anglash turfaligi bilan real salmoq kasb etadi. Qaynota bilan kuyov orasida kuzatilgan ziddiyat keskinlashmaydi. San’atkor ijtimoiy tahdid natijasi o‘laroq muammolarini yo‘l-

yo'lakay hal qiladi. Vohid Mirobidov hayoti xato hamda achchiq kechinmalarga boy. Unda e'tiqod sobitligi yo'qligi nizolar kelib chiqishiga olib keladi. Roman intihosida taqdir fojealari chiziqlarining tutashuvi diyonat muvaffaqiyatini ta'minlovchi yetakchi atribut darajasiga ko'tarilgan.

Bu davr romanchiligini o'qitishda, davrning ijtimoiy-madaniy hayotini va roman yaratilgan advr xusuiyatlarini ham inobatga olish maqsadga muvofiq keladi. Chunki sotsial jamiyatning badiiy adabiyotdan unumli foydalanishi natijasida, "so'z erkinligi"ning mafkuraviy tayziqlardagi xusuiyatini ham teranroq tushuntirish talab etiladi. Bugungi talaba o'sha davr mohiyatini to'g'ri anglasagina, asosli xulosalar chiqarish imkoniga ega bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Nasirov Azimidin. Badiylik va hayiot haqiqati. – Turkiya, Istanbul, KESIT, 2019. – 140 bet.
2. Раҳимов А. Ўзбек романни поэтикаси. Док.дисс.автореферати. – Тошкент, 1993. – 32 бет.
3. Пардаева З. Бадий – эстетик тафаккур ривожи ва ўзек романчилиги. –Тошкент, “Янги аср авлоди”, 2002. 58-бет.
4. Ёқубов О. Диёнат. Роман. – Тошкент, “Шарқ”, 1998. – 280 bet.
5. Nasirov A.N. Artistic thought in the process of globalizationand logical consistency. International Journal of social science Interdisciplinary Research. 2023. 120-126-s.
6. Nasirov, A. (2012). Poetics of Odil Yakubov's novels. Monograph. Tashkent, " Fan" publishing house, 160.
7. Normamatovich, N. A. (2021). Features of Symbolic Interpretation. International Journal on Orange Technologies, 3(3), 71-76.